

VALYUTA VA VALYUTA KURSI TUSHUNCHASI

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy univeristeti
Iqtisodiyot fakulteti Moliya kredit kafedrasi o'qituvchisi
G'afurov Olimjon G'olib o'g'li*

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy univeristeti talabasi
Eshqobilova Marjona Xolmurod qizi*

Annotatsiya: Moliya sohasida, ayrboshlash kursi bir valyutani boshqa bir valyuta bilan ayrboshlash uchun qo'llaniladigan kursdir. Valyutalar odatda milliy pul birligi bo'lishi mumkin. Ayrboshlash kursi bir mamlakatning valyutasini boshqa bir valyutaga nisbati deyiladi. Har bir mamlakat, o'zining valyutasiga qo'llanadigan ayrboshlash kurs rejimini aniqlaydi. Hukumatlar ayrboshlash kurslarida aniqlik va nazorat cheklarini qo'yishi mumkin. Mamlakatlar kuchli yoki zaif valyuta egasi bo'lishlari ham mumkin. Iqtisodiy adabiyotda milliy ayrboshlash kursining optimalligi haqida ma'lumot yo'q balki, milliy ayrboshlash kurs rejimlari siyosiy ko'rsatmalar bilan bog'liqdir.

Kalit so'zlar: valyuta, valyuta kursi, valyutalar kotirovkasi, kross kurslar, spot kursi, forward kursi, valyuta arbitraji, valyuta konversiyasi, valyuta kodi.

KIRISH

Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda valyuta bozori ham pulni valyuta kursi asosida o'zaro almashishi ham mamlakatning milliy valyutasi bilan bir qatorda boshqa xorijiy valyutalar ham cheklanmagan holda muomalada bo'ladi. Bu albatta valyuta munosabatlarini rivojlanish darajasiga bog'liq. Chunki buni ko'pchilik olimlar valyuta bozori bozor tuzilmasini harakatlantiruvchisi hisoblangan jahon pullarining mamlakat ichki bozorida amalda bo'lishi mexanizmidir deya ta'kidlashadi. Erkinlashtirilgan iqtisodiyotning vujudga kelishi va rivojlanishida pulning almashishini tutgan o'rni va uning ahamiyati beqiyos katta. Valyuta munosabatlarini tartibga solinishi milliy valyutani rivojlanishiga salbiy ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarni oldini olishni ta'minlash asosida mamlakatning iqtisodiy aloqalarini rivojlanishini mamlakatimizda bo'lgan iqtisodiy muammolarni ijobjiy va samarali hal etishni ta'minlaydi.

Valyuta muomaladagi qonuniy to'lov vositasi bo'lib, tovarlar qiymatining o'lchovi, hisoblash va to'lash vositasi bo'lib xizmat qiladi. Har bir mamlakat o'z milliy valyutasiga ega. Ayni paytda yer yuzida 250 dan ziyod davlat bor. Ulardan 195 tasi mustaqil mamlakatlar, qolganlari esa noaniq yoki maxsus maqomga ega. Dunyoda 160 ga yaqin valyuta mavjud. Valyuta atamasi tovarlar qiymatini o'lchash uchun foydalilaniladigan pul birligi, mamlakatda qabul qilingan pul birligi, xorijiy davlatlarning pul belgilari, muomala va to'lov ko'rinishidagi kredit vositasi sifatida qo'llaniladi. 2019-yil 20-avgustga qadar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki har dushanba kuni dollar kursini valyuta operatsiyalari bo'yicha

buxgalteriya hisobi, statistik va boshqa hisobot maqsadlari uchun, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hududida bojxona va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblash uchun o'tgan hafta valyuta birjasining savdolarida qayd etilgan kurslarning o'rtacha qiymati deb belgilagan. 20 avgustdan so'ng O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki valyutani sotish va sotib olish uchun narxlarni belgilamaydi, bu narx bozorda mustaqil ravishda tuziladi. Bundan tashqari, 20 avgustdan boshlab tijorat banklariga naqd xorijiy valyutani mijozning identifikatsiyasiga ega bo'lgan valyuta ayrboshlash shoxobchalari orqali sotishga ruxsat berildi.

O'zbekiston milliy valyutasi - so'm (UZS, kod 153), 1994 yil 1 iyulda muomalaga kiritildi. 1 so'm 100 tiyindan iborat.

So'm O'zbekiston Respublikasi hududida yagona qonuniy to'lov vositasi hisoblanadi, bu O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 122-moddasi va "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining asoslari to'g'risida"gi qonunning 11-moddasi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi oliy Kengashining 1993 yil 3 sentyabrdagi 952-XII-sonli qarorilarida batafsil keltirilgan.

Valyuta kursi nisbiy qiymat (xorijiy valyutaning milliy qiymati) ekanligi sababli iqtisodchilar uning o'zgarishlarini oldindan aytib berar va tushuntirar ekan, mamlakat iqtisodiyotini ham, mamlakat hududidan tashqaridagi iqtisodiyotni ham e'tiborga olishlari lozim. Masalan, iena AQSH dollariga nisbatan o'sishi mumkin, chunki AQSHda foiz stavkalari pasaytirilgan, Yaponianing o'zida esa hech narsa o'zgarmagan. Valyuta kurslari harakati tovar va xizmatlar bozoridagi narx harakatidan ko'ra ko'proq boshqa moliyaviy vositalar bozoridagi narxning harakatiga o'xshab ketadi. Bu aktsiyalar va qimmatli qog'ozlar kursi kabi «oldinga qaraydigan» narxlardir. Bu shuni uni anglatadiki, bugungi valyuta kursi ertaga ro'y berishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarni hisobga olgan holda hisoblab chiqilgan. Mana shuning uchun ham valyuta kursini oldindan aytib berish qiyin. Valyuta kursi odamlarning ro'y berishi mumkin bo'lgan vaziyat haqida qanday o'ylashiga ham, ularning muayyan vaziyatda nima qilishiga ham bir xilda bog'liq bo'ladi.

Narx erkin bozor sharoitlarida belgilangan valyutaga talab va taklifdan kelib chiqqan holda yoxud mamlakat hukumatining yoki uning bosh moliya-kredit organi, odatda markaziy banki tomonidan qat'iy tartibga solinadigan qaror bilan belgilanishi mumkin. Valyuta qiymati asosan valyuta kursining faqulodda oshib ketishiga yo'l qo'ymaslikka intiladigan moliya-kredit organlari rahbarligi ostida erkin bozor kuchlarining o'zaro aloqalari orqali belgilanadi. Valyuta kursi shakllanishining bunday shakli ba'zida «iflos suzish» deb ataladi Xorijiy valyutalarning milliy valyutadagi kursini belgilash valyutalar kotirovksi deb ataladi. Turli banklar amaliyatida ikki xil kotirovka: to'g'ri va teskari kotirovka qo'llanadi. To'g'ri kotirovkada xorijiy valyutaning qat'iy belgilangan ma'lum bir qismi milliy pul birliklarida ifodalanadi. Buyuk Britaniya va qisman AQSHda qo'llanadigan teskari kotirovkada milliy pul birligi xorijiy pul biliklarida ifodalanadi. Valyuta operatsiyalarini amalga oshiruvchi banklar valyutani turli kurslarda sotib oladi va sotadi.

Banklar xorijiy valyutani milliy valyutada sotadigan kurs (xorijiy valyutada to'lov hujjatlari) sotuvchi kursi, xarid qiladigan kurs esa – xaridor kursi deb ataladi. Ular o'rtafiga farq bankning valyuta operatsiyalari bo'yicha foydasini tashkil qiladi.

To'lov hujjatlari bo'yicha telegraf o'tkazmasi valyuta kursi, pochta o'tkazmasi valyuta kursi, veksellar valyuta kursi, cheklar, banknotalar valyuta kursi farqlanadi. Ilgari, xalqaro hisob-kitoblarda asosiy to'lov vositasi bo'lib o'tkazma veksel (tratta) xizmat qilgan paytlarda, valyuta kursi vekseli deb atalgan va xorijiy valyutadagi o'tkazma vekselning biron mamlakat miliy valyutasidagi narxini ifodalagan. Hozirgi paytda deyarli barcha valyuta hisob-kitoblari banklar orqali telegraf o'tkazmalari yo'li bilan amalga oshirilmoqda.

Ayrim mamlakatlarning valyuta bozorlarida xorijiy valyutalarning milliy valyutaga nisbatan kursidan tashqari kross-kurslar, ya'ni xorijiy valyutalarning bir-biriga nisbatan kurslari ham belgilanadi.

Kross-kurslar ikki xil valyuta o'rtafiga nisbat bo'lib, ularning uchinchi valyutaga nisbatan kursidan kelib chiqadi. Masalan, agar London banki Germaniya markalarini AQSH dollariga sotadigan bo'sa, ko'rinish turibdiki, u kross-kurslardan foydalanadi.

Jahon bozoridagi operatsiyalarda ko'pincha AQSH dollari bilan kross-kurslardan foydalaniladi, chunki AQSH dollari nafaqat asosiy zaxira valyutasi, balki ko'plab valyuta operatsiyalarida bitimlar valyutaasi ham hisoblanadi. Masalan, fransuz franklarini FRG markalari uchun sotib oluvchi dastlab fransuz franklarini dollarga, so'ngra dollarni FRG markasiga sotib olish frank va marka o'rtafiga kotirovkani topishdan osonroq bo'ladi. Tabiiyki, Parijda yoki Frankfurtda fransuz frankining FRG markasiga nisbatan (yoki aksincha) kursini belgilab beradigan banklar mavjud. Biroq cheklangan bozor sharoitlarida bunday maxsus xizmatlar uchun banklar o'z kotirovkasiga marja kiritishi mumkin.

Valyuta arbitraji ayni paytda turli mamlakatlarda mavjud bo'lgan bitta valyutaning kurslari o'rtafiga farq hisobiga foydalana olish maqsadidagi bitimdir. Oddiy va murakkab valyuta arbitraji farqlanadi. Oddiy valyuta arbitrajida arbitrajchi ikki mamlakat valyuta bozorida qayd qilingan farqdan foydalanadi. Masalan, agar AQSH dollarining kursi Nyu-Yorkda 140,5 yapon ienasiga, Parijda - 140,75 ienana teng bo'lsa, yapon arbitrajchisining 1 mln. dollarni Nyu-Yorkda 140,5 mln. ienga sotib olishi va bir vaqtning o'zida uni Parijda 140,75 mln. ienaga sotishi ko'proq foyda keltiradi. Olingan foyda 25 ming ienani tashkil qiladi. Murakkab valyuta arbitrajida operatsiyalar turli valyuta bozorlarida bir nechta valyutalar bilan amalga oshiriladi. Valyuta operatsiyalariga qarab, naqd (kassa) bitimlarida - «spot» kursi va muddatli bitimlarda - «forward» kursi farqlanadi.

Kassa bitimlaridan foydalaniladigan kurs kassa kursi deb ataladi. «Spot» kursi ikki biznes kun ichida bitimni tartibga solish uchun joriy valyuta kursi (forward kursiga qarshi). Uning kotirovkalari haqidagi axborot bank ekranlari va gazetalarda ko'rsatiladi. «Forward» kursi u bo'yicha xorijiy valyuta shartnomasi kelajakda belgilangan kunda yakuniy tartibga solish uchun bugungi kunda amalga oshiriladigan kursdir. Forward kursi «spot» kursdan

valyuta kurslari dinamikasi istiqbollari qanday baholanishiga qarab mukofot yoki chegirma (diskont) hajmiga farq qiladi.

1970-yillargacha valyuta kurslarini aniqlash uchun rasmiy asos bo'lib, valyutalar tarkibidagi qat'iy belgilab qo'yilgan oltin miqdori xizmat qilgan. Hozirgi paytda valyuta (oltin) pariteti – pul birliklarining metall tarkibi bo'yicha nisbati – real iqtisodiy ahamiyatini yo'qotgan. Qat'iy belgilab qo'yilgan valyuta kurslari o'rniqa xalqaro valyuta-moliya tizimiga «o'zgaruvchan» valyuta kurslari keldi, ular valyuta bozorlarida talab va taklifning o'zgarishi ta'siri ostida sezilarli tebranishlarga olib kelishi mumkin.

Valyuta konversiyasi esa bir mamlakat valyutasini boshqa davlat valyutasiga ayirboshlashdir. Ushbu ayirboshlash boshqa mamlakatlarga sayohat qilish, xorijiy firma va kompaniyalar bilan savdo-sotiq qilish va xorijiy onlayn-do'konlardan tovarlar sotib olish imkonini beradi.

Valyuta ayirboshlash to'lovlarni jo'natuvchi va qabul qiluvchi banklarning kursida amalga oshiriladi. Ayirboshlash uchun komissiya olinishi mumkin.

Emitentga qarab (valyutani muomalaga chiqaruvchi):

- Milliy valyuta - muayyan davlatning valyutasidir (so'm, dollar, yevro, rubl' va boshqalar). Mazkur davlat hududida foydalanish maqsadida Markaziy bank tomonidan muomalaga chiqariladi;
- Xorijiy valyuta – xorijiy davlatlarda muomalada bo'lgan va qonuniy to'lov vositasi hisoblangan valyutalar, shuningdek, kreditlash va to'lovlarni amalga oshirish vositalari (banknotalar, g'azna biletlari, tangalar, cheklar, veksellar);
- Jamoaviy valyuta - bu ma'lum bir davlatlar guruhi va xalqaro tashkilotlar tomonidan moliyaviy amaliyotlarni amalga oshirish uchun foydalaniladigan valyutadir. Masalan, 1999 yilning 1 yanvarida Yevropa Ittifoqi (EI) davlatlari yagona valyuta – Yevroni naqdsiz shaklda, 2002 yilning 1 yanvaridan esa banknotalar va tangalar ko'rinishida muomalaga kiritdilar
- Valyuta kodi – bu dunyodagi valyutalar uchun umumiyligida qilingan belgi bo'lib, u uchta harfdan iborat bo'ladi. Bu valyutalarni matnlar va elektron tabloidlarda qisqa va aniq aks ettirishni osonlashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. G'afurov U.V. «Prezident I. Karimovning Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralarini» asarini o'rganish bo'yicha, o'quvuslubiy qo'llanma. – T.: TDIU. -120 b, 2009-yil.
2. Jumayev N.X., Yuldashev M.I. Jahon moliyaviy inqirozi va uning O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri. // «Fan va turmush» jurnali, 2008. ¹ 6.

3. Xamidov I.A., Alimov A.M. O'zbekiston Respublikasidatashqi iqtisodiy faoliyat asoslari. Darslik / Mas'ul muharrir: X.Boboyev – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi «Adabiyot jamg'armasi» nashr., 2001-yil.
4. Xudoyberdiyev Z.Ya., G'afurov U.V., Xomitov K.Z.Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. O'quv qo'llanma. – T.: «O'zbekiston». 2009-yil.
5. Shodmonov Sh.Sh., G'afurov U.V. Globallashuv jarayoni va moliyaviy inqiroz sabablari // Adolat, 2009-yil 27-fevral.
6. Internet saytlari
<http://cbu.st.uz/uz/press>
<http://uba.uz/news.aspx?nidq584>
<http://www.bfa.re.uz>
<http://www.bankir.ru>
<http://www.gov.uz>
<http://www.uza.uz>